



## CHET TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

*Ilmiy rahbar. G.X.Xasanova*

*SamDCHTI dotsenti v.b., PhD*

*Elomonova Mahliyo*

*SamDCHTI, Ingliz I fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Zamonaviylashayotgan jamiyatda insonlardan o‘z ona tilidan tashqari yana bir necha xorjiy tillarni o‘rganishni hamda tatbiq qilishni taqazo qilmoqda, hamda bu o‘yinlar xorijiy tillarning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada ta’limiy o‘yinlardan foydalanish tilni oson o‘rganishning muvaffaqiyatli kaliti ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, bir qancha mashg‘ulotlar ham keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘yinlar, mакtab yoshlari, chet tili, leksik, psixologik tayyorgarlik, diqqat, til materiallari,kollektivezim.

Ma’lumki, chet tilni o‘rgatish-o‘rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tegishli chet til o‘qitish texnologiyasini qo‘llashni taqozo etadi. Maktab yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalalash, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni estetik tarbiyalash hamda shakllantirishda chet tili ham o‘z hissasini qo‘sadi. Bu borada turli xil o‘yinlardan foydalanish bolalarda tilga bo‘lgan ko‘nikmani oshirishga sezilarli darajada xizmat qiladi. O‘yin o‘ynash – his-hayajonni, diqqatni, imkoniyatni, mujassamlikni, bilimli, kuchli bo‘lishni talab qiladi. Mustaqil bir qarorga kelishga o‘rganadi. O‘yin o‘ynatayotganlarni yutish, g‘alaba qozonishga intilishlari, irodalari, xohishlari ularning faoliyatini tezlashtiradi [2]. Mana shu o‘yin o‘ynovchilarning xususiyatlarini ingliz tilida o‘yin o‘ynatishga asos qilinib olingan. Bolalar o‘yinlarni ingliz tilida o‘ynasagina ingliz tiliga qiziqadi hamda ingliz tilini ishtiyoq bilan o‘rganadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinni ingliz tilida olib borishni ta’limiy tomoni kuchli bo‘lib, ingliz tilida rolli o‘yinlarni o‘ynatish keng qo‘llanilmoqda.

Inglizcha o‘quv o‘yinlarni o‘quvchilar uchun tinglab tushunishni, gapirishni, o‘qishni, yozuvni faollashtirishda, til materiallarini o‘zlashtirishda va mustahkamlashda eng muhim vositadir. O‘quvchilar o‘yinlarni qiziqib o‘ynaydilar,



butun bilimlarini ishga solib yutishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali ta’lim-tarbiya beradi.

O‘yinlar quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi;

1) o‘quvchilarni nutqni bajarishi uchun psixologik tayyorgarligini tashkil qiladi;

2) o‘quvchilarga materiallarini ko‘proq qaytarib qo‘llashga tabiiy vaziyat, holat vujudga keltiradi;

3) o‘quvchilar sharoitga, vaziyatga qarab, mustaqil tayyorlanmagan nutq bajarishga o‘rganadilar. Til materiallarini qo‘llashni faollashtirish malakalari uchun leksik, grammatik, fonetik, orfografik o‘yin turlari qo‘llaniladi[1].

Rolli o‘yinlar quyidagicha tasniflanadi:

**1. Leksik**

**2. Grammatik**

**3. Fonetik**

**4. Ijodiy talqin qilish uchum dramatik o‘yinlar**

**Leksik o‘yinlar: Turing, bolalar, aylanada turing!**

Ushbu mashq sizga 1 dan 50 gacha ballni tezda o‘rganishga yordam beradi.

Barcha talabalar o‘qituvchi bilan birgalikda qo‘llarini ushlab, aylanada turishadi. O‘qituvchi sanashni boshlaydi - 1 (bir), uning yonida turgan talaba davom etadi - 2 (ikki) va hokazo. Keyingi raqamni noto‘g‘ri nomlagan yoki eslay olmagan o‘quvchilar aylana o‘rtasida turishadi. Yakuniy raqamga muvaffaqiyatli erishgan o‘yinchilar g‘olib hisoblanadi - 50. G‘oliblar qo‘shimcha ball va stikerlarga ega bo‘lishadi.[1].

**Grammatik o‘yinlar: Grammatika marafon**

Bu yoshda Internetdan chalg‘itish juda qiyin bo‘lgan bolalar uchun g‘alaba qozonadigan mobil o‘yin ijtimoiy tarmoqlar. O‘yining asosiy maqsadi – so‘z boyligini takrorlash. Noqonuniy fe’llar jadvalini o‘rganishda foydalanish mumkin. Sinf ikkita jamoaga bo‘lingan, har biri doskaning o‘z yarmini oladi. Har bir jamoaning o‘yinchilariga o‘z seriya raqami beriladi. Masalan, A jamoasi (1-12) va B jamoasi (1-12). O‘qituvchi birini chaqiradi tartibsiz fe’l. Present Simple va o‘yinchi raqami. Tegishli raqam ostidagi o‘yinchilarning vazifasi doskaga yugurib chiqish va o‘qituvchi tomonidan o‘tgan zamondagi fe’lning shaklini yozishdir. Ingliz tilidagi bunday qiziqarli topshiriqlar o‘smirlarga o‘zlarini jamoaning bir qismi sifatida his qilishlariga yordam beradi, ularga umumiy ish uchun mas’uliyatni o‘rgatadi.[3]



### Fonetik o‘yinlar: Letter scramble(tartibsiz harflar)

O‘quvchilaringiz oxirgi marta o‘rgangan so‘zlarini ro‘yxatini tuzing. Va biror harflarini chalkashtirib doskaga yozing. O‘quvchilaringizga harflarni to‘g‘ri tartibda qo‘yib, berilgan so‘zni topishga biroz vaqt bering. Kim birinch bo‘lib so‘zni topa olsa o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi[3].

### Daramatik o‘yinlar: Charades (so‘z topish o‘yini)

Charades o‘yini biror so‘zni ifodalash uchun harakatlardan foydalanadi. Bu o‘yinni o‘quvchilarni sust, zerikkan vaqtida unumli foydalanish mumkin. O‘quvchilar tanlash uchun bir necha to‘rtburchak qilib qirqilgan qog‘ozlarga so‘zlar yoziladi, fe’llarni ifodalash ancha oson. Bunda hamma biladigan so‘zlardan foydalanish mumkin. Sinf ikki jamoaga bo‘linadi hamda uch daqiqa ichida o‘sha so‘zni topish kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun, bir ball beriladi, o‘n ball jamlagan jamoa g‘olib bo‘ladi.[3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet tili darslarida o‘yinlar kognitiv qiziqishlarni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chet tilini ongli ravishda o‘rganishga yordam beradi. Ular mustaqillik, tashabbuskorlik, kollektivizm tuyg‘usini tarbiyalash kabi fazilatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shadilar. Biroq shuni esda tutish kerakki, o‘yinlarning barcha jozibadorligi va samaradorligi uchun mutanosiblik tuyg‘usini ko‘rsatish kerak, aks holda ular o‘quvchilarni charchatadi va hissiy ta’sirning yangiligini yo‘qotadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xoshimov O‘., I.Yoqubov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi T.:2003 y.[45-82b]
2. Jalolov J.J.Chet tili o‘qitish metodikasi. T.:2012.[14-b]
3. <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-oyinlar/>